



26.10.2022 даги

"AZIZBEK ELSHOD SAVDO" МЧЖ ва Шофиркон туман МТБ ўртасида 420000000,00 сўм умумий суммага  
тузилган 260-2-41-МТ/2022-сон - сонли шартномага

**ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ\***

Боб 251  
Шахсий газна ҳисобварақ 100022860062587091100251033

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			сўмда
	4232200			Жами
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь	420 000 000,00			420 000 000,00
Ноябрь				
Декабрь				
Жами йил бўйича	420 000 000,00			420 000 000,00

Жами 420000000,00 сўм

Тўрт юз йигирма миллион сўм 00 тиийн

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммалардан 126000000,00 сўм ёки 30,00%\*\*\* шартноманинг умумий суммасидан  
\_30\_% \*\*\*2022\_ Октябрь\_ ойида тўланиши лозим.

(\*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан газначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(\*\*) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(\*\*\*) — Юқоридаги кўрсатилган суммалардан ойига \_\_\_\_\_% жорий ойнинг \_\_\_\_\_ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва конун ҳужжатлари билан назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўланиши маълум қилган суммага ошдирилган қисмига оид равишда тўланиши ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари

М.Ў.



(имзо)

Хакимова Дилноза Ганиевна  
Ф.И.Ш.

Буюртмачи бош бухгалтери

(имзо)

Мажидов Бобир Бахронович  
Ф.И.Ш.

Газначилик бўлинмасининг  
ходими қабул қилди

(имзо)

Буюртмачи ходими  
қабул қилди

(имзо)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ й.

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ й.

## PUDRAT SHARTNOMASI

**“Azizbek Elshod Savdo” MCHJ** kiyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiluvchi o'zining nizomi ustavi, asosida ish yurituvchi rahbari **R.Sharipov** timsolida bir tomondan va Shofirkon tuman **Maktabgacha ta'lim bo'limi** kiyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yurituvchi, o'zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari vvb **D.Xakimova** timsolida ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

### 1. SHARTNOMANING PREDMETI.

1.1.Ushbu shartnoma buyicha **“Pudratchi”** "Buyurtmachi"ning buyurtmasiga va tuzilgan loyiha smeta hujjatlariga asosan **Shofirkon tuman Maktabgacha ta'lim bo'limiga** qarashli **15, 22, 26, 38-sonli DMTT binolarini joriy ta'mirlash.**

"Buyurtmachi" esa "Pudratchi" tomonidan loyiha smeta bo'yicha bajargan ishlami dalolatnoma asosida qabul qilib olishni hamda to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishni o'z zimmlariga oladilar.

1.2.Ushbu shartnomaning umumiy summasi QQS bilan **420 000 000 (To'rt yuz yigirma million)** so'mni tashkil etadi.

### 2. SHARTNOMA BO'YICHA KELISHUV NARXLAR.

2.1.«Buyurtmachi» tomonidan taqdim» qilingan hujjatlaiga asosan ta'mirlash ishlarining qiymati QQS bilan **420 000 000 (To'rt yuz yigirma million)** so'mni tashkil qiladi.

2.2. Ta'mirlash ishlarining boshlanishi «25» Oktyabr 2022 yil.

2.3. Ta'mirlash ishlarining tugashi vaqti «25» Dekabr 2022 yil.

### 3.TA'MIRLASH ISHLARINI BOSHlash, BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Ta'mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. Shartnomadagi 4.1 bandida ko'rsatilgan avansni "Pudratchi" olgandan so'ng ta'mirlash ishlarini boshlaydi.

3.3. "Buyurtmachi" tomonidan ta'mirlash ishlarini bajarish davrida «Pudratchi»ga o'zi tomonidan xarid qilingan qurilish matcriallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4.Ta'mirlashni to'xtab qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.5.Ta'mirlashni tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan so'ng ta'mirlash ishlari tamom bo'lgan deb hisoblanadi.

### 3. TO'LOV SHARTI VA TARTIBI

4.1.Ushbu shartnomaning umumiy narxi QQS bilan **420 000 000 (To'rt yuz yigirma million)** so'mni tashkil etadi. "Buyurtmachi" ta'mirlash ishlarini boshlash uchun "Pudratchi"ga shartnoma narxining **30 % yoki 126 000 000 (bir yuz yigirma olti million)** so'm miqdorda oldindan to'lov (avans) ni to'laydi va bu oldindan to'lov 2022 yilning shartnoma imzolanganidan keyin 5 bank ish kunida amalga oshiriladi. "Buyurtmachi" tomonidan yakuniy **70 % yoki 294 000 000 (ikki yuz**

to'qson to'rt million) so'm to'lov "Pudratchi" ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilgandan so'ng 30 kun ichida amalga oshiriladi.

4.2. "Buyurtmachi" to'lovni pul o'tkazish yuli bilan amalga oshiradi.

4.3. "Pudrat" tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan sumumadan oshiqcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

## 5. PUDRATCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. Shartnoma bahosi QQS bilan 420 000 000 (To'rt yuz yigirma million) so'm bo'lgan ta'mirlash ishlarini shartnomaning 2.3 bandida ko'rsatilgan muddatda bajarish va o'z vaqtida sifatli qilib topshirish.

5.2. Pudratchi maxsus ta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb qilish huquqiga ega.

5.3. Buyurtmachini pudrat shartnomasi tuzilishi davomida sub pudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi. shartnoma mavzusi. Sub pudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish.

5.4. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomani tuzadi.

5.5. qurilish maydonida texnika xavfsizligi. ishlab bajarish vaqtida atrof muhitni. o'tqazilgan daraxtlari va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash.

mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari. transport vositalari. anjomlar. priborlar. inventarlar. qurilish materiallari. buyumlar. konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish: qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash: mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

5.6. Pudratchi Buyurtmachidan bajarilgan xizmat uchun haqni shartnomaning 4.1 bandiga asosan kelishilgan vaqtda va miqdorda to'lanishini talab qilish huquqiga ega.

## 6 BUYURTMACHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1 "Buyurtmachi" "Pudratchi"dan ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida hamda belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan topshirishini talab qilish huquqiga ega.

6.2 "Buyurtmachi" tasdiqlangan smetasiga muvofiq budjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofiq dalolatnomani "Pudratchi" bilan birgalikda tuzadi.

6.3 ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish. Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash.

6.4. Sifatsiz xizmat ko'rsatilganda "Buyurtmachi" xizmatni qabul qilib olishdan voz kechishi va kamchiliklarni bartaraf qilish to'g'risida 3 kun ichida pudratchini yozma ravishda xabardor qiladi.

## 7. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.

7.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon. ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida. "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida.

boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi

7.2. Buyurtmachi Pudratchiga bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi. ammo penyaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lov qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

7.3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

7.4. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi. biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

7.5. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa. Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

7.6. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlami ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

## **8. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI**

8.1 Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar. shu jumladan. pora berishni taklif qilmaydi. va'da bermaydi. tovlamachilik qilmaydi. pora sifatida pul to'lamaydi. bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora. ya'ni taraflardan biri o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

8.2 Agar shartnoma bo'yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hatti-harakatlariga, shu jumladan. komissiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa. qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishi shart.

8.3. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan komissiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabr sanasidagi PF-6313-son farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir tarafdin to'xtatib turishga. bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi

## **9. FORS-MAJOR HOLATLARI.**

9.1 Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan. ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmaydigan kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar,

harbiy harakatlar kiradi.

9.2 Vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuch mavjudligi va amal qilishning davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

9.3 O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz 15 kun davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa. mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

## 10. KELISHMOVCHILIKLARNI HAL QILISH TARTIBI.

10.1 Ushbu shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq, tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan, shuningdek, yetkazilgan zarami qoplash to'g'risidagi nizolar taraflarning o'zaro kishuvi yoxud qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud orqali hal etiladi

## 11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

11.1. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budget tashkilotlarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budgeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan qonuniy kuchga kiradi hamda 2022-yil 31-dekabr gacha amalda ho'ladi.

11.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib har biri bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan saqlanadi.

## 12. TOMONARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI:

### “PUDRATCHI”

“Azizbek Elshod Savdo” MCHJ

(Tovar etkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchining nomi)

Manzil: Shofirkon tumani Talisafet MFY

Tel./faks +99897-860-29-29

H/R 20208000800594460001

Bank nomi: "O'zsanoatqurilish" bank

MFO 00440

OKONX 4120

SITR 3033

Rahbar



Ushbu K. Sharipov

### «BUYURTMACHI»

MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI

(Byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotning nomi)

Manzil: Shofirkon tuman 1-sentyabr ko'chasi  
Tel./faks 65-502-38-83

Sh/v\* 100022860062587091100251033

Byudjetdan mablag' oluvchi SITRi 207266631

OKOHX 85100

G'aznachilik bo'linmasi nomi: Shofirkon tumani  
bo'yicha G'aznachilik bo'limasi

G'azna h/v: 23402000300100001010

Bankning nomi: Toshkent Markaziy bank KXKM

MFO : 00014

G'aznachilik bo'limasi SITRi: 201122919



Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan.  
Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR

Code ni skanerlang.	
Imzolovchi F.I.SH.	DILNOZA XAKIMOVA GANIYEVNA
Imzolangan sana	26.10.2022 10:12
Hujjat kodi	CS7174433272
Hulosa kodi	UB1182508307

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN  
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

UB1182508307

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Shofirkon tuman Maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli 15-22-26-38 sonli DMTT binolarini joriy ta'mirlash.
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Shofirkon tumani maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 25.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Shofirkon tumani  
yuridik markazi  
markaz rahbari:



**J.A.MO'MINOV**

25.10.2022